



Developing legal competence to enhance legal culture in the professional development system of public education

Rakhimakhon BOYMIRZAEVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

legal knowledge,
legal awareness,
legal culture,
innovation,
methods,
competence,
professional competence,
learner,
legal sciences,
professional development.

ABSTRACT

This article analyzes issues related to enhancing the legal awareness and legal culture of pedagogical staff in public education through the acquisition of legal knowledge within the system of retraining and professional development. The article highlights certain aspects of teaching legal disciplines to develop legal competence in professional development institutions, aimed at improving the legal culture of participants during the professional development process. Conclusions regarding the enhancement of participants' legal culture during professional development are presented.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp121-128>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xalq ta'limi malaka oshirish tizimida huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

huquqiy bilim,
huquqiy ong,
huquqiy madaniyat,
innovatsiya,
metodlar,
kompetentlik,
kasbiy kompetentlik,
tinglovchi,
huquqiy fanlar,
kasbiy rivojlanish.

Ushbu maqolada, xalq ta'limi pedagog-xodimlarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida huquqiy bilim olish orqali erishishga doir masalalar tahlil etilgan. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda malaka oshirish ta'lim muassasalarida huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda huquqiy fanlarni o'qitishning ayrim jihatlari ko'rsatib berilgan. Malaka oshirish jarayonida tinglovchining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga oid xulosalar taqdim etilgan.

¹ Senior Lecturer, Department of Civil and Criminal Law and Procedure, Faculty of Law, Namangan State University.
E-mail: boymirzayevaraximaxon75@gmail.com

Развитие правовой компетентности в повышении правовой культуры в системе повышения квалификации народного образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

правовые знания, правосознание, правовая культура, инновация, методы, компетентность, профессиональная компетентность, слушатель, юридические науки, профессиональное развитие.

В данной статье анализируются вопросы, связанные с приобретением правовых знаний в системе переподготовки и профессионального развития педагогов-работников народного образования в целях повышения их правосознания и правовой культуры. В процессе повышения правовой культуры обучающихся показаны некоторые аспекты преподавания юридических наук в развитии правовой компетентности в учреждениях повышения квалификации народного образования.

KIRISH

Jahonda uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini “butun hayot davomida ta’lim” tamoyiliga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish, andragogik o’qitish jarayonlarining mahsuldorlik darajasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Andragogik nuqtai-nazardan malaka oshirish jarayonlarida bilimlarga ehtiyojning barqarorligi, o’z-o’zini anglash, ta’lim oluvchilarning amaliy tajribasi, o’qishni davom ettirishga tayyorlik, ijobiy-emotsional motivatsiyaning mavjudligi kabi tamoyillarni hisobga olish orqali tinglovchilarda huquqiy kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. AQShning Milliy o’quv markazi (National Training Laboratories) tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlar uzluksiz kasbiy o’sishning muhim mezonini ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanib, to’rt bosqichli empirik model (Experiential Learning Model) asosida shaxsiy tajribani anglangan darajaga o’tkazish, nazariy konsepsiyalarni o’zlashtirish orqali ularni amaliyotda qo’llay olish muhim dolzarblikka ega ekanligini ko’rsatadi.

Tinglovchilarning o’quv-bilish faolligi, ayniqsa, huquq fanlari bo’yicha o’quv mashg’ulotlarida muammoli, interfaol, innovatsion va loyiha ta’limi texnologiyalaridan foydalanishda ta’minlanadi. Chunki mazkur ta’lim texnologiyalari bevosita ta’lim oluvchining o’quv-bilish faolligini rivojlantirishga doir g’oyalarga asoslanadi. Huquq fanlarini o’qitishda M.M. Levina tomonidan qayd etilganidek, quyidagi holatlarning kafolatlanishiga erishish mumkin: ta’lim oluvchilarning bilish jarayonini faollashtirishga rag’batlantirish, ularni mustaqil ta’lim olishga undash; ularda ijodiy, tadqiqotchilik tafakkur uslubini tarbiyalash; ularni mantiq va tadqiqot metodlari bilan tanishtirish” [1]. Malaka oshirish markazlarida tinglovchilarga huquq fanlarini o’qitishda har bir mavzu bo’yicha huquqiy kasus hamda keys-stadilardan foydalanish, tinglovchilarni ziddiyatli yoki dolzarb huquqiy mavzularda kichik tadqiqotlarni olib borishga, ko’p variantli yechimlarni topishga yo’naltirish ularda tahliliy, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish bilan birga kasbiy kompetentlikka xos muhim sifatlarini ham hosil qiladi. Ta’lim oluvchilarning “interfaol dars davomida o’quv materialini o’rganish bilan bog’liq faoliyat turi” [2] sifatida namoyon bo’ladigan “interfaol yondashuv uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bajariladigan interfaol mashq va topshiriqlar negiz bo’ladi.

Interfaol mashq va topshiriqlarning odatdagsidan asosiy farqi shundaki, ular o'zlashtirilib bo'lingan materialni mustahkamlashga emas, balki yangi materiallarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi" [3]. Qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida ta'lim jarayonini takomillashtirishga qo'yilayotgan talablardan biri – tinglovchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi, motivatsiyasini oshirish, o'quv-bilish faolligini rivojlantirishdir. Huquq fanlarini o'qitishda mazkur talabni inobatga olishda interfaol ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlariga tayanish kutilgan natijalarni ta'minlaydi. Zero, interfaol ta'lim texnologiyalari tinglovchilarda kasbiy- huquqiy mazmundagi muammoli vaziyatlarni hal qilish, ularning yechimi yuzasidan oqilona qaror qabul qilish, yechimni ifodalovchi g'oyani asoslash, o'z nuqtai nazarini himoya qilish borasidagi qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda raqobatga bardoshli, malakali mutaxassislarni tayyorlash fonida ularning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jon Raven "kompetentlik" tushunchasini quyidagicha izohlaydi: aniq predmet sohasi bo'yicha muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus qobiliyat hamda predmet bo'yicha o'zlashtiriladigan o'ziga xos malakalar, tafakkur usuli, shuningdek, o'z xatti-harakati uchun mas'uliyatni tushunishni o'z ichiga oladigan tor mutaxassislik bilimlari [4]. Ye.V. Xaritonova [5] esa kasbiy kompetentlikning asosiy belgilari quyidagilar ekanligiga e'tiborni qaratadi:

- "bilim va malakalar darajasi (bilim va malakalar sifati);
- bilim va malakalar ko'lami va kengligi; maxsus topshiriqlarni bajarish layoqati;
- o'z ishini oqilona rejalashtirish va tashkillashtirish qobiliyati;
- bilimlardan nostandart vaziyatlarda foydalanish qobiliyati (texnika, texnologiya, mehnatning tashkil qilinishi va shartlarining o'zgarishiga tezkor moslashish).

Kompetentli yondashuv esa "ta'lim yo'nalishlarini individuallashtirish"[6]ga imkon beradi. Shunga ko'ra, "ta'lim jarayonida tinglovchilarga taqdim etiladigan yagona mazmundagi o'quv material ular tomonidan turli darajada o'zlashtiriladi va tabiiy ravishda o'zlashtirishning mavjud darajasi amaliy ahamiyat kasb etib, "strategik (istiqbolli) qarorlarni oldindan ayta olishda yangi imkoniyatlarni yaratadi" [7]. Zamonaviy pedagogik yondashuv tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy kompetentlik sifatleri, o'quv-bilish faolligi hamda huquqiy madaniyatga egalik darajasining nafaqat pedagog tomonidan, balki ularning o'zlari tomonidan ham mustaqil tahlil qilinishi va baholanishiga erishishni taqozo etmoqda. Mazkur yondashuv huquq fanlarini o'qitish jarayonida tinglovchilarning o'z-o'zini refleksiv baholash qobiliyatini rivojlantirish zarurligini anglatadi. Demak, xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish ta'limida, tinglovchilarni huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida huquq fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirishda huquq fanlarini o'qitishning ustuvor tamoyillari hamda muhim yondashuvlarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ustuvor tamoyillarning to'g'ri tanlanishi huquq fanlarini o'qitish orqali huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning mohiyatini belgilab beradi. Fikrimizcha, huquq fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, barcha malaka toifalari uchun alohida fan moduli tuzilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda xalq ta'limidagi rahbar kadrlarni va pedagoglar toifasini, maktabgacha ta'lim xodimlarini yo'nalish xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

A.F. Kolotov va I.V. Skuratovlar ta'lim tizimida huquq o'qitish usullarining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etar ekan, asosiy e'tiborni "huquqiy ta'lim" tushunchasining mohiyatini ochib berish va yoritishga qaratadi. Muallifning fikriga ko'ra,

“huquqiy ta’lim deganda ta’lim oluvchilarga maxsus bilimlarni berish, ular tomonidan ijobiy ijtimoiy tajribaning o’zlashtirilishiga xizmat qiladigan ko’nikma, malakalarni shakllantirish hamda tayanch ijtimoiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish jarayoni” tushuniladi. Muallif huquqiy ta’limning maqsadini “demokratik jamiyatda yashovchi fuqaroni tarbiyalash” deb belgilaydi. Ma’lum bilimlar (huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va shu kabi), malakalar (tanqidiy fikrlash, tahlil, hamkorlik), qadriyatlar (inson huquqlarini hurmat qilish, tolerantlik, kelishuvchanlik, g’urur, fuqarolik ongiga egalik), shuningdek, jamiyatning umumiy-siyosiy hayotida ishtirok etish istagiga egalik kabilarni izohlaydi. Bu kabi bilimlar yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ishda, shuningdek, huquqiy ta’limning funksiyalarini oydinlashtirishga urinadi. Uning fikriga ko’ra, huquqiy ta’lim falsafiy-madaniy, ta’limiy-huquqiy, psixologik-rivojlantiruvchi, tarbiyaviy-shakllantiruvchi, korreksion funksiyalarni bajaradi [8].

MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI

O’zbekistonda huquqiy ta’limni tashkil etishning samarali yo’llarini tadqiq qilish, huquq fanlarini o’qitish metodikasini zamonaviy pedagogik yondashuv, ustuvor tamoyillar, ilg’or qarashlar bilan boyitish, xorijiy va mahalliy tajribalarga tayangan holda innovatsion texnologiyalarni asoslash orqali o’quvchi, tinglovchi hamda mutaxassislarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, malaka oshirish ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o’qitishning o’qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga qo’yilgan davlat talablariga javob berish va qo’yilayotgan bugungi kun talablarini to’la qanoatlantirmaydi. Mavjud holat global axborotlashuv, bilimlarni o’zlashtirishning yangi qadriyatlari shakllanishi bilan uyg’un holda O’zbekiston sharoitida sohada keskin o’zgarishlarni sodir etish maqsadga muvofiq ekanligini ko’rsatmoqda. Huquq fanlarini o’qitish oldida turgan eng muhim vazifalar – global axborotlashuv, innovatsion o’qitish muhiti shakllanayotgan mavjud sharoitda tegishli fanlar mazmunini tubdan yangilash, ularda kognitiv va empirik jihatdan davrga xos o’zgarishlar, qadriyatli yondashuvlar, shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalarining o’rin olishini ta’minlash sanaladi.

Global axborotlashuv hamda innovatsion ta’lim muhitining shakllanishi o’z navbatida ilm-fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish sohalarida ro’y berayotgan inqilobiy o’zgarishlarni inobatga olgan holda o’qitish tizimini takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi. Davr talabi malaka oshirish ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o’qitish metodikasini takomillashtirishni ham taqozo etmoqda. Huquq fanlarini o’qitishda huquqiy ta’lim, pedagogika va metodika fanlarining o’zaro integratsiyasini ta’minlash; huquqiy ta’lim mazmuniga shaxsga yo’naltirilgan ta’lim g’oyalarini, tinglovchilarni kasbiy tayyorlashda samaradorlikka erishishni kafolatlovchi didaktik qarashlarni singdirish; huquqiy ta’limning sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalarini tanlash; huquq fanlarini o’qitishning o’quv-metodik hamda texnik ta’minotini mustahkamlash kabi vazifalarning hal qilinishiga qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida huquq fanlarini o’qitish metodikasini takomillashtirishda huquq ta’limining ustuvor tamoyillari hamda muhim yondashuvlarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ustuvor tamoyillarning to’g’ri tanlanishi huquq fanlarini o’qitishning mohiyatini belgilab beradi.

Tadqiqot jarayonida huquq fanlarini o’qitishning ilmiylik; tizimlilik, izchillik; nazariya va amaliyot birligi; amaliy yo’nalganlik; ijtimoiy-huquqiy faollik; ta’limiy hamkorlik; integratsiya; o’zaro aloqadorligi va huquqiy nigilizmga murosasizlik kabi

tamoyillar, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan; majmuaviy, innovatsion, muammoli, interfaol, refleksiv hamda kompetentli yondashuvga asoslanishi ta'lim samaradorligini oshirishga ishonch hosil qilindi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Dars jarayonida tinglovchilar: davlat, uning boshqarilishini; huquqqa bog'liq tushunchalarni; huquqiy munosabatlar tushunchasini; huquqiy munosabatlarning kelib chiqish asoslarini; huquqbuzarlik tushunchasini, turlarini; huquqiy javobgarlik tushunchasi va boshqa bir qancha huquqiy ma'lumotlarni bilib olishlari lozim. R. Boymirzayeva fikricha, "Olingan huquqiy bilimlar shaxsga o'z ilmiy yoki ijodiy izlanishlarida ham yordam beradi. Buning uchun tinglovchi dars jarayonida bilganlaridan tashqari o'z ustida ishlab, qo'shimcha manbalar, adabiyotlardan foydalanishi kerak" [9].

Tinglovchilar orasidan davlat, jamiyat hayoti bilan qiziquvchilar, rahbarlik xususiyatiga ega shaxslar ham aniqlanadi. Ular davlat va huquq nazariyasi, davlatdagi mavjud qonunlar, ularning yaratilishi bilan alohida qiziqadi. Ularni to'g'ri yo'lga solish uchun o'qituvchilari avvalambor o'zi yaxshi huquqiy bilimga ega bo'lishi, qonun yangiliklari bilan tanishgan bo'lishi shart. Agar o'qituvchining ma'lumoti u yoki bu huquq sohasi bo'yicha to'la bo'lmasa, tinglovchiga maxsus manbalar, yoki mutaxassislar bilan uchrashuviga yordam berishi lozim. Ana shundagina jamiyatimizda haqiqiy bilimdon, o'z kasbini sevadigan, uning huquqiy asoslarini biladigan mutaxassislar malakalarini oshiradilar.

O'quv jarayonida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy mexanizmiga, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qaror topishi va fuqarolar jamiyati shakllanishi masalalariga, iqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslariga jiddiy e'tibor qaratilishi hozirda dolzarb masalalardan biri. Huquqiy bilimlarni davlat idoralarigina emas, balki jamoat birlashmalari tomonidan ham ommalashtirish jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishning yangi shakllari jumlasiga kiradi. Huquqiy bilimlarni ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish tizimini takomillashtirish, barchaga mo'ljallangan yuridik adabiyotlarni nashr etish huquqiy madaniyatni oshirishga ko'maklashadi.

– huquqiy fanlar asoslarini chuqur o'rgatadigan o'quv yurtlari va ularda tayyorlanadigan yuridik kadrlarning sonini iqtisodiy, ijtimoiy, demografik vaziyat va jamiyatning tegishli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini belgilovchi boshqa omillar e'tiborga olingan holda aniqlash;

– darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar tayyorlash va nashr etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;

– ta'lim va tarbiya muassasalariga daxldor bo'lmagan shaxslarning (ishchilar, xizmatchilar, uy bekalar, pensionerlar, harbiy xizmatchilar va boshqalarning) huquqiy tarbiyasi va huquqiy ta'limi tizimini takomillashtirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari, ayniqsa, davlat va huquq asoslari fani o'qituvchilari tomonidan maktab o'quvchilari o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida ma'lum masalalarni qamrab olgan tadbirlarni amalga oshirish kerak. Huquqni pisand qilmaslikka barham berish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish huquqiy axborotdan foydalana olish imkoniyatini amalda ta'minlashni talab qiladi. Bu jihatdan qonunlarni va, ayniqsa, idoraviy normativ hujjatlarni o'z vaqtida nashr etish zarur. O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, xorijiy davlatlardagi huquqiy madaniyatni oshirishga doir ilmiy tadqiqotlarning natijalarini nashr etish va ulardan foydalanishni kengaytirish, bu sohada ilmiy axborot ayirboshlashni yo'lga qo'yish muhimdir.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida huquqiy ta'lim jarayonini isloh qilish, ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviylik va aloqadorlikni rivojlantiradi. Ta'lim jarayonini tashkil etishga bo'lgan yangicha munosabat, yondashuv O'zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishni tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan mavjud sharoitda huquqiy ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish yo'lida muayyan vazifalarni hal qilish maqsadga muvofiqdir. Globallashuv, ishlab chiqarish jarayonlarining texnologiyalashuvi, qolaversa, ta'limning innovatsion xarakter kasb etishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning yangi, istiqbolli vazifalarini belgilab bermoqda. Mazkur vazifalarni hal etishning eng muhim sharti sifatida shaxs intellektini rivojlantirishning e'tirof etilayotganligi milliy ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Milliy ta'lim tizimini takomillashtirish murakkab, mas'uliyatli jarayon bo'lib, unda pedagogika sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, komil inson, malakali mutaxassisni tayyorlash borasidagi ijtimoiy ehtiyoj hamda shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadigan ustuvor tamoyillarni inobatga olish zarur. Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda ta'limning barcha turlari, shu jumladan malaka oshirish tizimining o'ziga xos o'rni ko'rinib turibdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hali huquqiy madaniyatni yuksaltirish va huquqiy tarbiya masalalari bo'yicha o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlar yetarli emas. Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya uzoq davom etuvchi, izchil, og'ir va ko'p qirrali jarayondir. U huquqqa oid ishlar saviyasini ko'tarishni, barcha fuqarolar, mansabdor shaxslar va jamiyatning Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy rioya qilishlarini talab qiladi. Aholining huquqiy savodxonligini ta'minlashda yuridik axborot tizimining puxta ishlab chiqilgan bo'lishi katta ahamiyat ega.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari "Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchilarini malakasini oshirish" kursi yo'nalishida huquq fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida o'qitiladigan o'quv modullarini o'qitishning amaliyotdagi ahvoli tahlil qilindi va quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirildi:

- tadqiqotning asosiy yo'nalishlari aniqlandi;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim tizimining huquqiy fanlarni o'qitishga oid o'quv-me'yoriy hujjatlari mazmuni tahlil qilindi;
- ta'lim va tarbiya jarayonida huquqiy ta'lim va tarbiyaning o'rni o'rganib chiqildi;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida tinglovchilarni huquqiy ong va huquqiy madaniyatini rivojlantirishning nazariy jihatlarini tahlil etildi va zarur tavsiyalar ishlab chiqildi;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida tinglovchilarni huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishning mavjud holatini o'rganish orqali muammolar aniqlandi va yechimlari ishlab chiqildi;
- pedagoglarni malaka oshirish jarayonida huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga oid xorij tajribasini o'rganildi;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida tinglovchilarni huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalarini tahlil o'tkazildi;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida tinglovchilarni huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning samarali metodlarini qo'llash bo'yicha tajribalar shakllandi.
- qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida tinglovchilarni huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tadqiqot muammosi bo'yicha mavjud xorijiy tajribalar va ilmiy uslubiy manbalarni tahlil qilish;
- huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan huquqiy bilim berish jarayonini kuzatish;
- anketa so'rovnomalar va intervyular o'tkazish;
- o'zaro tajriba almashish.

XULOSALAR

Aholining huquqiy tarbiyasi va ta'limini takomillashtirishga ta'lim va tarbiyaning hali foydalanilmagan mexanizmlarini yaratish, ulardan samarali foydalanish, tarbiya va ta'limning yangi shakllari va vositalarini joriy etish, moddiy-texnika negizini kuchaytirish yo'li bilan erishiladi. Mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, siyosiy-huquqiy tizimni takomillashtirish sharoitlarida huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yangi vositalari va usullarini joriy etish lozim. Aholiga huquqiy ta'lim berish va huquqiy tarbiya ishlarini tashkil etish sifatini oshirish bugungi kunning talabidir.

Fikrimizcha, xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish tizimida, huquqiy bilim berish jarayonida tinglovchilarga quyidagilar o'rgatilishi lozim;

- *birinchidan*, bilim berilishi, bilim davlat va huquq bilan bog'langan bo'lishi kerak;
- *ikkinchidan*, olingan bilimni hayotga tatbiq etish mahorati o'rgatiladi;
- *uchinchidan*, shaxs doim o'z ustida ishlashi, izlanishi biror natijaga ega bo'lishlikka harakat qilishi kerak;
- *to'rtinchidan*, davlat va jamiyat ishlari bilan qiziqish xislatlariga ega bo'lishni shakllantirish;
- *beshinchidan*, tinglovchi joriy qonunlardan umumiy tushunchalarga ega bo'lishi;
- *oltinchidan*, bilim oluvchi tomonidan olgan o'z huquqiy bilimlariga rioya qilgan holda, jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak.

Shunday qilib, huquqning tarbiyaviy yo'lga qo'yish va boshqarish funksiyasining ta'sirchanligi huquqiy xabarlarning sifati, uzluksiz va zarur manzilga tez yetkazilishi bilan aniqlanadi. Buning uchun axborot manbai, birinchidan, axborotga talabgor uchun qimmatli bo'lgan xabarlarga ega bo'lishi, ularni doimo to'ldirib borishi; ikkinchidan, yetkazadigan xabarni iste'molchi uchun ma'qul, mos va uchinchidan, xabarlar bilan ta'minlashni doimiy, maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сущность проблемного обучения // https://works.doklad.ru/view/Feg9sa_vamw.html.
2. Козак М. Критическое мышление // <https://psychologyjournal.ru/stories/kriticheskoe-myshlenie>.
3. Интерактивные подходы // https://ru.wikipedia.org/wiki/Интерактивные_подходы.
4. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. – М.: Когито-центр, 2002. – С. 6-7.
5. Харитонов Е.В. Об определении понятий “компетентность” и “компетенция” // <https://www.natural-sciences.ru/ru/article/view?id=10999>
6. Компетентностный подход // edu.enterinfo.ru/инновационные-педагогические-техно/компетентностный-подход

7. Садовникова Г.Д. Особенности преподавания дисциплин государственно-правового цикла с применением интерактивной методики // <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-prepodavaniya-distiplingosudarstvenno-pravovogo-tsikla-s-primeneniem-interaktivnoy-metodiki>.

8. Колотов А.Ф., Скуратов И.В. Методика преподавания права. Учебное пособие. – Оренбург: Университет, 2014. – С. 78-80.

9. Boymirzayeva Raximaxon. "Formation of legal awareness and legal culture in the training system of public education employees". Ilmiy maqola. Jamiyat va innovatsiyalar-Общество и инновации-Society and innovations. Jurnal.2023- yil, 1-son.4-jild.150-bet.